



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
BANDLIK VA MEHNAT MUNOSABATLARI VAZIRLIGI**

**B U Y R U Q**

“ 19 ” yanvar 20 21 yil

№ 6-ICH

Toshkent shahri

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining  
2022-yil 12-yanvardagi PQ-81-son qarori ijrosini  
samarali tashkil etish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-81-son qarori ijrosini samarali tashkil etish hamda ISO 37001:2016 “Korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimlari – foydalanish bo‘yicha xalqaro talablar va tavsiyalar” xalqaro standarti talablari va tavsiyalarini inobatga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash, aniqlash, bartaraf etish, monitoring qilish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitish ishlarini tashkil etish maqsadida,

**BUYURAMAN:**

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-81-son qarori ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

Bunda, 2022-yil 1-fevraldan boshlab reyting baholash tizimi, eksperiment tariqasida Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash quyidagi beshta yo‘nalish bo‘yicha belgilangan indikatorlar asosida amalga oshirilishi:

- davlat tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mexanizm va huquqiy asoslarning yaratilganligi hamda amaliyotga tatbiq etilganligi;

- korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va ularni kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilganligi;

- davlat tashkilotlari rahbarlarining korrupsiyaga qarshi murossasiz munosabatni ko‘rsatuvchi xatti-harakatlarining mavjudligi;

- xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ichki tartib-taomillardan xabardorligi hamda ushbu sohada bilim va ko'nikmalarini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilganligi;

- korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tegishli soha yoki tarmoq kesimida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ushbu illatga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan targ'ibot tadbirlarining samaradorligi bo'yicha jiddiy e'tibor qaratilsin.

2. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash, aniqlash, bartaraf etish, monitoring qilish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitish ishlarini tashkil etish yuzasidan quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Uslubiyoti **1-ilovaga**;

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tizimi xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitishni tashkil etish yuzasidan Uslubiy ko'rsatmalar **2-ilovaga**;

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi tamoyillar va talablarga rioya qilinishini monitoring va nazorat qilish Qoidalari **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Vazirlik markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari, hududiy va tasarrufiy tashkilotlar rahbarlari mazkur buyruqning ilovasida belgilangan talablariga qat'iy rioya etilishi bo'yicha shaxsan mas'ul ekanliklari ko'rsatib o'tilsin, **ikki hafta muddatda**:

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozim va funksiyalarni o'rganib, Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi ishlab chiqib, vazirlik "Komplayens nazorat" bo'limi bilan kelishsin.


4. "Komplayens nazorat" bo'limi (B.Karshiboyev):

**bir hafta muddatda** vazirlik markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari, hududiy va tasarrufiy tashkilotlar rahbarlariga Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini ishlab chiqishda amaliy yordam bersin;

Vazirlik markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari, hududiy va tasarrufiy tashkilotlar rahbarlari tomonidan taqdim etilgan Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini umumlashtirib, vazirlikning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini ishlab chiqib, rahbariyatga **bir oy muddatda imzolash** uchun kiritсин.

5. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilishni o'z zimnamda qoldiraman.

Vazir



N.Xusanov

**O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi**  
**korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash**  
**USLUBIYOTI**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur uslubiyot O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tizimiga (keyingi o'rinlarda – Vazirlik) yuklangan vazifa va majburiyatlarni bajarishda yuzaga kelib chiqadigan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash bo'yicha qoidalarni belgilab beradi hamda Vazirlikda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashga yagona yondashuvni shakllantirishga qaratiladi.

2. Quyidagilar Vazirlikdagi korrupsiyaviy-xavf-xatarlarni baholashning maqsadi hisoblanadi:

Vazirlik faoliyatini kompleks tahlil qilish orqali korrupsiya xavf-xatariga eng ko'p moyil bo'lgan funktsiya va lavozimlarini belgilash;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha samarali oldini olish choralarini ishlab chiqish.

3. Vazirlikdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash quyidagilarni ishlab chiqilishini nazarda tutadi:

Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi;

Vazirlikda korrupsiyaga qarshi kurashish choralar (tadbirlar)ni, mas'ul shaxslarni, amalga oshirish mexanizmi va muddatlarini o'z ichiga olgan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dastur.

4. Vazirlikdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash har yili yoki quyidagi holatlar yuzaga kelganda amalga oshiriladi:

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni birlamchi baholash zaruriyati;

O'zbekiston Respublikasi qonunchilik talablarining o'zgarishi;

funktsiya yoki tartib-taomilning amalga oshirilishiga sezilarli ravishda ta'sir ko'rsatuvchi Vazirlikning ichki hujjatlari o'zgarishi;

Vazirlikning funksiyalarini amalga oshirishida o'ziga xos jihatlarining o'zgarishi, yangi funktsiyalarning yuklanishi;

Vazirlik funksiyalarining korrupsiyaviy xavf-xatar darajasiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa shart-sharoitlarning kelib chiqishi.

5. Ushbu Uslubiyotda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

**qoldiq xavf-xatar** – korrupsiyaviy xavf-xatarni minimallashtirishga qaratilgan choralarni qabul qilingandan so‘ng qoluvchi xavf-xatar (ya‘ni, amaldagi korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatni va tartib-taomillarni, xavf-xatarlarni minimallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarni va joriy etilgan nazoratlarni hisobga olgan holda);

**korrupsiyaviy xavf-xatar** – xodimlar yoki uchinchi shaxslar tomonidan Vazirlik nomidan va (yoki) ularning manfaatlarini ko‘zlab korrupsiyaviy xatti-harakatlarni sodir etish xavfi;

**korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash** – Vazirlik tomonidan amalga oshiriladigan funksiyalarni tahlil qilish, ularning korrupsiyaviy xavf-xatarga moyillik darajasini aniqlash, shuningdek, funksiyalar doirasida amalga oshiriladigan tegishli tartib-taomillar uchun o‘ziga xos va qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash faoliyati;

**korrupsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasi** – Vazirlikdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash natijalari bo‘yicha tuziladigan va Vazirlik funksiyalari va tartib-taomillarining umumiy ro‘yxati, tegishli funksiyalarni amalga oshirish bilan bog‘liq ehtimoliy korrupsiyaviy xavf-xatar (sxemalar) tasnifi, o‘ziga xos va qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarlar darajasi, ularni minimallashtirish choralari va aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarni minimallashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun mas‘ul bo‘lgan xodimlar lavozimlarini o‘z ichiga oluvchi birlashgan hujjat;

**korrupsiyaviy xarakatlar** – xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlarini yo‘lida harakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor bo‘lishi, shu jumladan pul, qimmatbaho qog‘oz, boshqa ko‘rinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy harakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish va/yoki olish yoki bunda vositachilik qilishda, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to‘lovlar undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o‘z xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish;

**korrupsiyaga oid huquqbuzarlik** – korrupsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

**tartib-taomil** – Vazirlik funksiyalarini amalga oshirish doirasidagi xodimlar, bo‘linmalar tomonidan bajariladigan yoki bitta natijaga qaratilgan, yohud ma‘lum bir funksiyaning ajralmas elementi hisoblangan, alomatlar bo‘yicha bir guruhga birlashtirish mumkin bo‘lgan harakatlar yig‘indisi;

**funksiya** – bir nechta tartib-taomilni o‘z ichiga olishi mumkin bo‘lgan Vazirlikning ichki jarayon (faoliyat yo‘nalishlari)laridan biri;

**ekspert fikri** – aniq fakt yoki hodisa bo‘yicha xodim yoki bo‘linmaning sub‘ektiv qarashi yoki fikriga asoslangan qarori.

**o‘ziga xos xavf-xatar** – Vazirlik faoliyati va amalga oshirilayotgan funksiyalari spetsifikatsiyasidan kelib chiqadigan xavf-xatari, shu bilan birga uni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirilishi hisobga olinmagan holda (ya‘ni, amaldagi korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati va tartib-taomillari, xavf-xatarlarni

minimallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar va joriy etilgan nazoratlar hisobga olinmagan holda);

**hududiy yoki tarkibiy bo‘linmaning korrupsiyaviy xavf-xatarlari xaritasi-** Vazirlikning tarkibiy bo‘linmasidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash natijalari bo‘yicha tuziladigan hamda vazirlik funksiyalari va tartib-taomillarining umumiy ro‘yxati, tegishli funksiyalarni amalga oshirish bilan bog‘liq ehtimoliy korrupsiyaviy xavf-xatar (sxemalar) tasnifi, o‘ziga xos va qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarlar darajasi, ularni minimallashtirish choralari va aniqlangan korrupsiyaviy xatarni minimallashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun mas‘ul bo‘lgan xodimlar lavozimlarini o‘z ichiga oluvchi hujjat.

6. Vazirlikdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens nazorat” tizimi (keyingi o‘rinlarda – “Komplayens nazorat” bo‘limi) tomonidan vazirlik rahbari topshirig‘i asosida amalga oshiriladi. Vazirlik rahbari topshirig‘ida baholashni o‘tkazish aniq muddatlari ko‘rsatiladi.

7. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashda “Komplayens nazorat” bo‘limi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens nazorat” tizimi xodimlarini jalb qilgan holda vazirlikda xavf-xatarlarni baholash jarayonini tashkillashtiradi;

Vazirlikda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash jarayoni ustidan umumiy nazoratni amalga oshiradi;

Vazirlik tarkibiy bo‘linmalarining korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini tuzadi va Vazirlik rahbariyati bilan kelishadi;

Vazirlik tarkibiy bo‘linmalarining korrupsiyaviy xavf-xatarlari xaritasini Vazirlikning korrupsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasiga umumlashtiradi;

“Komplayens nazorat” bo‘limi rahbari tarkibiy bo‘linma rahbarlariga xavf-xatarlarni baholash natijalari va korrupsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasini taqdim etadi;

tasdiqlangan xavf-xatarlar xaritasi asosida tarkibiy bo‘linmalar tomonidan ishlab chiqilgan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dasturlar loyihalarini ko‘rib chiqadi va ularni qabul qilish maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida xulosa beradi;

Vazirlik tarkibiy bo‘linmalarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dasturini ishlab chiqadi va raxbar bilan kelishadi;

Vazirlik tarkibiy bo‘linmalarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dasturi asosida vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish dasturini ishlab chiqadi;

Vazirlikda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarini muvofiqlashtiradi va ularni nazorat qiladi;

ushbu Uslubiyotda ko‘zda tutilgan boshqa vazifalarni amalga oshiradi.

“Komplayens nazorat” bo‘limi zarur hollarda tarkibiy bo‘linma rahbarlaridan qo‘shimcha axborot va hujjatlarni talab qilib oladi.

8. Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens nazorat” tizimi xodimlari quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

tarkibiy bo‘linmalarda korrupsiyaviy xavf-xatarlar baholanishini tashkil qiladi va o‘tkazadi;

tarkibiy bo‘linmalarda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash jarayoni ustidan nazoratni amalga oshiradi;

tarkibiy bo‘linmalarning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini tuzadi va ushbu Uslubiyotda ko‘zda tutilgan tartibda kelishilishini ta‘minlaydi;

tarkibiy bo‘linmalarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dasturlarini ishlab chiqadi va ushbu Uslubiyotda ko‘zda tutilgan tartibda kelishilishini ta‘minlaydi;

tarkibiy bo‘linmalarda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarini amalga oshirishni muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi;

ushbu Uslubiyotida ko‘zda tutilgan boshqa vazifalarni amalga oshiradi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens nazorat” tizimi xodimlari zarur hollarda tarkibiy bo‘linma xodimlaridan qo‘shimcha axborot va hujjatlarni talab qilib oladi.

## **2-bob. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash**

9. Vazirlikda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash jarayoni tegishli buyruqlar va ularda ko‘rsatilgan muddatlar asosida amalga oshiriladi.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholashning umumiy muddati 3 oydan oshmasligi lozim.

10. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash funksiyalarning korrupsiyaviy xavf-xatarga moyillik darajasini dastlabki baholash va tegishli funksiyalar doirasida Vazirlik xodimlari tomonidan amalga oshiriladigan ayrim tartib-taomillarning korrupsiyaviy xavf-xatar darajasini baholashni o‘z ichiga oladi.

11. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash, pastdan tegishli hududiy bo‘linmalardan) tepaga (vazirlik darajasigacha), mazkur bobning 12-21 bandlarida ko‘rsatilgan tartib va ketma-ketlikda amalga oshiriladi.

12. “Komplayens nazorat” bo‘limi ushbu Uslubiyotiga 1-ilovada keltirilgan Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini ishlab chiqish bo‘yicha Vazirlik tarkibiy bo‘linmalariga ko‘rsatma yuborilishini ta‘minlaydi.

Ko‘rsatmada tasdiqlangan Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini “Komplayens nazorat” bo‘limiga taqdim etish muddatlari ko‘rsatilib, bu muddat o‘n besh ish kunidan kam bo‘lmasligi kerak.

13. Vazirlik tarkibiy bo‘linmalarining Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi tegishli bo‘linmalar tomonidan ishlab chiqilib, “Komplayens nazorat” bo‘limiga Vazirlik uchun yagona Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini tuzish maqsadida kiritiladi. Vazirlik tarkibiy bo‘linmalarining Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi “Komplayens nazorat” bo‘limi tomonidan rahbariyat bilan kelishiladi.

14. Vazirlik tarkibiy bo‘linmalarining Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi tegishli bo‘linmaning Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens nazorat” tizimi xodimlari tomonidan ishlab chiqiladi va tegishli hududiy va tarkibiy bo‘linma rahbarlari bilan kelishiladi. Tegishli rahbar bilan kelishilgan Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi Komplayens nazorat tizimiga ko‘rib chiqish uchun kiritiladi.

15. Vazirlik tarkibiy bo‘linmalari tomonidan ishlab chiqilgan Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasiga oid savollar yuzaga kelgan taqdirda, “Komplayens nazorat” bo‘limi xodimlari tegishli tarkibiy bo‘linmaga izoh berish yoki xaritaga tuzatish kiritish uchun so‘rov yuboradi. Bunda, so‘rovga javob so‘rov olingan kundan boshlab besh ish kunidan oshmagan muddatda yuborilishi lozim.

16. “Komplayens nazorat” bo‘limi xodimlari o‘z ekspertlik fikriga tayangan holda Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasiga o‘zgartirishlar kiritishlari mumkin.

17. Vazirlik tarkibiy bo‘linmalarining korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritalari asosida “Komplayens nazorat” bo‘limi Vazirlikning korrupsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasini ishlab chiqadi.

18. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xartasini tuzish muddati, tarkibiy bo‘linmaning korrupsiyaviy xavf-xatarlari xaritasi tasdiqlangan sanadan boshlab, o‘n ish kunidan oshmasligi kerak.

19. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasi vazirlik “Komplayens nazorat” bo‘limi taqdimnomasiga asosan rahbariyat tomonidan tasdiqlanadi.

20. Qoldik korrupsiyaviy xavf-xatarning yuqori darajasi bilan foydalanadigan tartib-taomillar uchun “Komplayens nazorat” bo‘limi va Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens nazorat” tizimi xodimlari ushbu Uslubiyotning 2-ilovasiga muvofiq korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko‘p moyil bo‘lgan lavozimlar ro‘yxatini ishlab chiqadi.

21. Vazirlikning korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko‘p moyil bo‘lgan lavozimlar ro‘yxati “Komplayens nazorat” bo‘limi taqdimnomasiga asosan vazirlik rahbariyati tomonidan tasdiqlanadi.

22. Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens nazorat” tizimi xodimlari tomonidan tasdiqlangan Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning xaritasida belgilangan chora-tadbirlarga asosan tarkibiy bo‘linmalarining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dasturi ushbu Uslubiyotning 3-ilovasiga muvofiq Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning xaritasi tasdiqlangan sanadan o‘n ish kuni ichida ishlab chiqilib tasdiqlanadi.

Vazirlik tarkibiy bo‘linmalarining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dasturi “Komplayens nazorat” bo‘limi bilan kelishilgandan so‘ng tegishli tarkibiy bo‘linma rahbarlari tomonidan tasdiqlanadi.

23. Vazirlikning Korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi vazirlik tarkibiy bo‘linmalarining korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarini inobatga olgan holda “Komplayens nazorat” bo‘limi tomonidan ishlab chiqiladi hamda vazirlik rahbariyati tomonidan tasdiqlanadi.

### **3-bob. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning keyingi (har yillik) baholanishi**

24. Vazirlikda korrupsiyaviy xavf-xatarlarning keyingi baholanishi doimiy ravishda, bir yilda kamida bir marta, qoida tariqasida yil boshida Vazirlik rahbarining tegishli buyrug‘i asosida o‘tkaziladi.

Keyingi (har yillik) korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash muddati 2 oydan oshmasligi lozim.

25. Yillik korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash ushbu uslubiyotning 2-bobida ko‘rsatilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash tartibida amalga oshiriladi.

26. Har yillik korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash boshlanishidan oldin “Komplayens nazorat” bo‘limi vazirlikning tarkibiy bo‘linmalari rahbarlariga oldingi baholash davriga nisbatan qonunchilikda yoki ichki idoraviy hujjatlarga kiritilgan o‘zgarishlarni aniqlash maqsadida ushbu Uslubiyotga 4-ilovaga mos shaklda So‘rovnoma yuboradi.

27. tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari tomonidan to‘ldirilgan So‘rovnomalarni yig‘adi, tahlil qiladi.

### **4-bob. Vazirlikda amalga oshiriladigan funksiyalar va tartib-taomillarning korrupsiyaviy xavf-xatar darajasini baholash tartibi**

28. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash tashqi va ichki axborot manbalaridagi ma’lumotlar tahlili asosida amalga oshiriladi, jumladan:

vazirlikning funksiyalarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar va tashkilotning ichki hujjatlari (misol uchun, tarkibiy bo‘linmalar, xodimlarning lavozim yo‘riqnomalari to‘g‘risidagi nizomlar va h.k.);

ichki tekshiruvlar materiallari, shu bilan birga xizmat tekshiruvlari materiallari;

ichki audit va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha monitoring natijalari;

odob-ahloq komissiyasi yig‘ilishlari natijalari;

manfaatdor tomonlar, davlat xizmatiga oluvchilar, ekspertlar va boshqa manfaatdor shaxslar orasida o‘tkazilgan so‘rov, jumladan ijtimoiy tadqiqotlar natijalari bo‘yicha tashkilotning xodimlari tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy harakatlarga oid murojaatlar;

Vazirlik faoliyatidagi huquqbuzarliklarga oid statistik ma’lumotlar;

korrupsiyaviy harakatlar to‘g‘risida xabar berishga mo‘ljallangan aloqa kanallariga kelib tushgan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari;

Vazirlik xodimlari tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy harakatlar yoki odob-ahloq qoidalariga rioya qilmaslik to‘g‘risida OAVdagi ma’lumotlar;

ijtimoiy tarmoqlarda qoldirilgan izohlar;



huquqni muhofaza qiluvchi organlari tomonidan taqdim etilgan materiallar, jumladan jinoyat ishlariga doir axborotlar va boshqalar.

29. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash jarayonida Vazirlikning har bir funksiyasi va tartib-taomili bo'yicha korrupsiyaviy harakatlarni sodir etilishi imkoniyatlar borligi bo'yicha tahlil qilish lozim.

30. Har bir funksiya quyidagi shkala bo'yicha baholanadi:

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko'p moyil bo'lgan funksiya;

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng kam moyil bo'lgan funksiya;

31. O'rganilayotgan funksiya doirasida amalga oshirilayotgan tartib-taomillarning o'ziga xos xavf-xatarini baholash quyidagi mezonlarga ko'ra amalga oshiriladi:

o'ziga xos yuqori xavf-xatar korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko'p moyil bo'lgan funksiyalar doirasida amalga oshiriladigan tartib-taomillarga beriladi;

o'ziga xos o'rta xavf-xatar korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng kam moyil bo'lgan funksiyalar doirasida amalga oshiriladigan tartib-taomillarga beriladi;

o'ziga xos past xavf-xatar xavf-xatarlar ko'zda tutilmagan va vazirlikning "Komplayens nazorat" bo'limining asosli xulosasi asosida istisno tariqasida qo'llanilishi mumkin.

32. Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar darajasini baholash xavf-xatarli hodisani amalga oshirishning ehtimoli (mazkur Uslubiyotning 5-ilovasi 5.1 jadvaldagi mezonlarga) va korrupsiyaviy xavf-xatarning oqibat darajasi (mazkur Uslubiyotining 5-ilovasi 5.2 jadvalidagi mezonlarga) ni hisobga olgan holda xavf-xatarlar ahamiyatlilik shaklidan foydalanib amalga oshiriladi (mazkur Uslubiyoti 5-ilovasidagi 5.1 rasm).

### **5-bob. Korrupsiyaviy xavf-xatarning qoldiq darajasini minimallashtirish choralari**

33. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish chora-tadbirlarini belgilashda:

har bir chora Vazirlik xodimlari uning maqsadlari, pirovard natijasi va ma'lum bir korrupsiyaviy xavf-xatarni minimallashtirish bilan aloqasini tushunishi uchun aniq va ravshan ifoda etilishi;

har bir chora uchun uni amalga oshirish muddati yoki davriyligi belgilanishi, uni amalga oshirish uchun mas'ul shaxslar, amalga oshirilishini monitoring qilish va samaradorligini baholash mexanizmlari aniqlab olinishi zarur.

34. Vazirlikning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasiga kiritilgan, aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish chora-tadbirlari Vazirlikning Korrupsiyaga qarshi kurashish dasturlariga ham kiritiladi.

35. Vazirlikda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish ustidan nazorat "Komplayens nazorat" bo'limi tomonidan amalga oshiriladi.

## **6-bob. Yakuniy qoidalar**

36. Zarurat bo'lganda, Vazirlikning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi va korrupsiyaga qarshi kurashish dasturiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bilan bog'liq masalalar bo'yicha "Komplayens nazorat" bo'limi tomonidan rahbarga takliflar kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasi bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyotiga I-ilova

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi  
**Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi**

No	Funksiya nomi	Funksiyaning korrupsiyaviy xavf-xatariga moyilik darajasi (eng ko'p moyil/eng kam moyil)	Funksiya bajarilayotgan tartib-taomil nomi	Tartib-taomilni bajarish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar (lavozim, bo'linmasi)	Ehtimoliy korrupsiyaviy sxema (xavf xatar)ning qisqacha tavsifi	O'ziga xos korrupsiyaviy xavf-xatar (yuqori / o'rta / past)	Mavjud nazorat tartib-taomillari / korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashirish choralari	Nazorat tartib-taomillari / korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashirish chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun mas'ul shaxslar (lavozimi, bo'linmasi)	Qoldiq xavf-xatar darajasi (yuqori / o'rta / past)	Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish miqdadlari	Izohlar (zatur hollarda)
1											
2											

1. Bo'linma
  - 1.1. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi
  - 1.2. Departament/Boshqarma
  - 1.3. Bo'lim
2. To'ldirish uchun mas'ul
  - 2.1. F.I.Sh
  - 2.2. Lavozimi
  - 2.3. Bog'lanish uchun (elektron pochta, telefon)

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va  
mehnat munosabatlari vazirligi  
korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash  
uslubiyotiga 2-ilova

**Korrupsiya xavf-xatariga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar**

**RO'YXATI**

<b>№</b>	<b>Tizim nomi</b>	<b>Tuzilma nomi</b>	<b>Lavozim (funktsiyalarini bajarish uchun mas'ul bo'lgan shaxslarni ko'rsatgan holda)</b>
1.1.			
...			
2.1.			
...			

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va  
mehnat munosabatlari vazirligi  
korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash  
uslubiyotiga 3-ilova

**O'zbekiston Respublikasi bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi,  
hududiy va tasarrufiy tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi kurashish  
dasturi**

No	Tizim nomi	Korrupsiyaviy xavf-xatarni minimallashtirish bo'yicha choralar/tadbirlar/tartib-taomillar	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddatlari	Mas'ul ijrochilar (F.I.Sh, lavozimi)
1.1.					
1.2.					
...					
2.1.					
2.2.					
...					

**Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni keyingi bosqichda baholash uchun vazirlik tizimi  
bo'linmalarini tasniflash bo'yicha so'rovnoma  
SHAKLI**

**Quyidagi savollarga javob bersangiz (kerakligisini tagiga chizing):**

1. Korrupsiyaviy xavf-xatar so'nggi marta baholangandan so'ng qonunchilikda qandaydir o'zgarishlar sodir bo'lganmi? Agar javob ijobiy bo'lsa, quyida keltirilgan jadvalga tegishli ma'lumotlarni kiriting.

A) Ha                      B) Yo'q

2. Tarkibiy bo'linmangiz tomonidan bajariladigan tuzilma yoki funktsiya faoliyatini tartibga soluvchi ichki hujjatlarda korrupsiyaviy xavf-xatar so'nggi marta baholangandan so'ng qandaydir o'zgarishlar sodir bo'lganmi? Agar javob ijobiy bo'lsa, quyida keltirilgan shaklga tegishli ma'lumotlarni kiriting.

A) Ha                      B) Yo'q

3. Korrupsiyaviy xavf-xatar so'nggi marta baholangandan so'ng davlat boshqaruv organlari faoliyati/tuzilmasida tarkibiy bo'linmangiz tomonidan bajarilayotgan funksiyaga ta'sir qilgan/ta'sir qilishi mumkin bo'lgan qandaydir o'zgarishlar yuz berdimi? Agar javobingiz ijobiy bo'lsa, quyida keltirilgan shaklga tegishli ma'lumotlarni kiriting.

A) Ha                      B) Yo'q

4. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni avvalgi baholashda ko'zda tutilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish chora-tadbirlari amalga oshirildimi? Nima va qachon amalga oshirilganini ta'riflab bering. Agar amalga oshirilmagan yoki qisman amalga oshirilgan bo'lsa, sababini yozing.

A) Ha                      B) Yo'q                      V) Qisman amalga oshirilgan

5. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bo'linmalarida funksiyalarni bajarish va tartib-taomillarni amalga oshirishga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa shart-sharoitlar mavjudmi? Agar javobingiz ijobiy bo'lsa, quyida keltirilgan jadvalga tegishli ma'lumotlarni kiriting.

A) Ha

B) Yo'q

No	Tizim nomi	Tizim tuzilmasi nomi	Funksiyalar o'zgarгани sabablari	O'zgarган funktsiya ta'rifi	Funksiya doirasida bajarilayotgan yangi/o'zgarган tartib-taomillar	Tartib-taomillarni bajarish uchun mas'ul shaxslar (FISH, layozimi)
1.1.1.						
1.1.2.						
...						

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi

Bo'linma \_\_\_\_\_

To'ldirayotgan shaxsning lavozimi \_\_\_\_\_

To'ldirayotgan shaxsning F.I.Sh \_\_\_\_\_

Imzo \_\_\_\_\_

To'ldirish sanasi \_\_\_\_\_

O‘zbekiston Respublikasi Bandlik  
va mehnat munosabatlari vazirligi  
korrupsiyaviy xavf-xatarlarni  
baholash uslubiyotiga 5-ilova

**5.1-jadval – Korrupsiyaviy xavf-xatar ehtimoli darajasini  
aniqlash mezonlari**

Ehtimoli	Ta’rifi
Yuqori	<ul style="list-style-type: none"> <li>– O‘ziga xos xavf-xatar darajasi yuqori;</li> <li>– Nazorat tadbirlarining mavjud emasligi / sezilarli darajada kam-ko‘stini to‘ldirish kerak bo‘lgan nazorat tadbirlarining mavjudligi;</li> <li>– Tartib-taomilni ichki hujjatlar yordamida aniq tartibga solinishi mavjud emasligi;</li> <li>– Tartib-taomilni avtomatlashtirish mavjud emasligi/darajasi pastligi.</li> </ul>
O‘rtacha	<ul style="list-style-type: none"> <li>– O‘ziga xos xavf-xatar darajasi o‘rta;</li> <li>– Tartib-taomil tartibga solingan, kam-ko‘stini oz miqdorda to‘ldirish kerak bo‘lgan nazorat tadbirlari joriy etilgan ;</li> <li>– Tartib-taomil tartibga solingan, qisman avtomatlashtirilgan, biroq yetarli darajada shaffof emas;</li> <li>– O‘ziga xos xavf-xatar darajasi yuqori xavf-xatarni kamaytirish uchun yetarli bo‘lgan nazorat tadbirlari, jumladan Tashkilotning ichki hujjatlari bilan tartibga solingan, kamida uchta shaxs tomonidan kross-funksional nazorat (davlat organi va tashkiloti hududiy va tarkibiy davlat bo‘linmalarining nazorat qilinishi)ni ko‘zda tutuvchi nazorat tadbirlarining mavjudligi;</li> <li>– Tartib-taomil qisman yoki to‘liq avtomatlashtirilgan.</li> </ul>
Past	<ul style="list-style-type: none"> <li>– O‘ziga xos xavf-xatar darajasi past;</li> <li>– O‘ziga xos xavf-xatar darajasi o‘rta hamda xavf-xatarni kamaytirish uchun yetarli bo‘lgan nazorat tadbirlari, jumladan ichki hujjatlar bilan tartibga solingan, kamida</li> </ul>




Ehtimoli	Ta'rif
	<p>uchta shaxs tomonidan kross-funksional nazoratni ko'zda tutuvchi nazorat tadbirlarining mavjudligi;</p> <p>– Tartib-taomil to'liq avtomatlashtirilgan.</p>

**5.2-jadval – Korrupsiyaviy xavf-xatarning oqibat (ta'sirchanlik) darajasini aniqlash mezonlari**

Oqibat darajasi	Obro'ga putur yetkazish	Javobgarlik
<b>Yuqori</b>	<p>– Xavf-xatar tashkilotning mamlakat va xalqaro miqyosdagi obro'siga sezilarli ravishda putur yetkazadi.</p>	<p>– Tashkilot xodimlariga nisbatan jinoiy ish qo'zg'atish uchun tegishli organlarga hujjat yuborish tashabbusi bilan chiqish.</p>
<b>O'rta</b>	<p>– OAVda salbiy hodisaning yoritilishi;</p> <p>– Aholi va hamkorlardan salbiy fikrlar va shikoyatlar olish;</p> <p>– xavf-xatar tashkilot obro'siga mahalliy darajada putur yetkazadi.</p>	<p>– Tashkilot xodimlariga nisbatan ma'muriy surishtiruv o'tkazish uchun hujjatlarni Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga yuborish tashabbusi bilan chiqish.</p>
<b>Past</b>	<p>– Aholi, mahalliy OAVlardan vaziyatga izoh berishni so'rab alohida so'rovlar tushishi mumkin.</p>	<p>– Davlat organi/idorasi tizimi xodimlariga nisbatan xizmat tekshiruvi o'tkazish tashabbusi bilan chiqish mumkin .</p>

5.1-rasm. Qoldiq xavf-xatar darajasini aniqlash shakli



O'zbekiston Respublikasi Bandlik  
va mehnat munosabatlari vazirining  
2022 yil "18" yanvardagi 624-son  
buyrug'iga 2-ilova

**O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tizimi  
xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitishni tashkil etish  
yuzasidan  
USLUBIY KO'RSATMALAR**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Uslubiy ko'rsatmalar mehnat organlari va muassasalari xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish masalalarida ichki idoraviy o'qitishni tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalarni belgilaydi.

2. Mazkur Uslubiy ko'rsatmalar korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni oldini olish va ularni sodir etishga olib kelayotgan sabablarni bartaraf etish, xodimlarning huquqiy madaniyatini oshirish va ularni qonun hujjatlariga hamda mehnat organlari va muassasalarining ichki hujjatlariga rioya qilish ruhida tarbiyalashga qaratilgan.

3. Mehnat organlari va muassasalarining xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'quv dasturlari va materiallari ushbu Uslubiy ko'rsatmalarga muvofiq ishlab chiqiladi.

4. Mehnat organlari va muassasalarining kadrlar boshqarmasi / bo'limi xodimlar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitish ishlari to'g'risidagi ma'lumotlarni jamlaydi va tahlil qiladi.

**2-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitish ishlarining asosiy  
tamoyillari**

5. Mehnat organlari va muassasalarining xodimlar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitish ishlari quyidagi tamoyillarga tayanadi:

**xolislik va ilmiylik** - korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'quv materiallarini tayyorlashga mas'ul bo'lgan shaxslar ularni ilmiy faktlar, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari va xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlaydi;

**amaliylik** - mehnat organlari va muassasalarining xodimlarini korrupsiyaga qarshi o'qitishning shakllari, usullari va materiallari amaliy ahamiyatga ega bo'lishi, haqiqiy vaziyatlarga asoslanishi, shuningdek, xodimlar tomonidan olingan materiallarni tushunish darajasi va muayyan amaliy vazifalarni hal qilish uchun qo'llay olish imkoniyatini, keyinchalik nazoratini qamrab olishi zarur;

**ketma-ketlik va tizimlilik** - korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'quv materiallarining tayyorlash hamda mehnat organlari va muassasalarining xodimlarini

o'qish tartibi ketma-ket tarzda, tuzilmaviy-mantiqiy tizim shaklida amalga oshiriladi. O'qitish umumiy tushunchalar va hodisalardan yakka tartibga, soddadan murakkabga, bazaviydan rivojlanganga va h.k. asosida amalga oshiriladi;

**hammaga mo'ljallanganlik** - korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitish ishlari mehnat organlari va muassasalari xodimlarining mavjud bilimlari va ko'nikmalarini hisobga olish, barcha xodimlarga tushunarli bo'lgan o'quv materiallarini shakllantirish asosida amalga oshiriladi;

**differensial yondashuv** - mehnat organlari va muassasalari xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitish ishlari muayyan funksiyalar / faoliyat yo'nalishlarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash natijalarini inobatga oladi. Korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo'lgan lavozimlarni egallab turgan xodimlar qo'shimcha maxsus tarzda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitiladi;

**o'qitish ishlarining usullari va shakllarini doimiy asosda takomillashtirish** - mehnat organlari va muassasalari o'quv materiallarini ishlab chiqish, o'qitish, shuningdek, xodimlarning bilimlarni o'zlashtirganligini tekshirishda texnik va ilmiy taraqqiyotning innovatsiyaviy yutuqlaridan foydalanishga intiladi.

### **3-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitish ishlarining ustuvor vazifalari**

6.O'qitish ishlarining shakli va usullarini belgilash, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'quv materiallarini shakllantirishda mehnat organlari va muassasalari xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitishga mas'ul bo'lgan shaxslar quyidagi ustuvor vazifalarga asoslanishlari lozim:

korrupsiyaning mohiyati, uning shakllari, jamiyat hayotining turli sohalarida namoyon bo'lishi hususiyatlari, ushbu voqelikning sabablari, ijtimoiy-xavfli va zararli oqibatlarini haqida umumiy tasavvurni shakllantirish;

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xulq-atvorning ma'naviy-axloqiy qadriyatlariga qat'iy va so'zsiz rioya qilinishiga asoslangan xulq-atvor modelini shakllantirish;

xodimlarni mehnat organlari va muassasalarida amal qiladigan, korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan tamoyillar, talablar va tartib- taomillar bilan tanishtirish;

korrupsiyaviy xavf-xatarlar yuz berishiga ko'maklashuvchi holatlarni aniqlash va oldini olish, korrupsiyaviy xulq-atvorga nisbatan murosasizlikni namoyish etish qobiliyatini shakllantirish.

### **4-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitish ishlarini shakllantirish va o'tkazishga mas'ul shaxslar**

7.Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish Komplayens nazorat bo'limi (keyingi o'rinlarda – Komplayens nazorat bo'limi) mehnat

organlari va muassasalari xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'quv rejalarini tayyorlashda qatnashadi, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'quv materiallarini ishlab chiqadi, o'qitish ishlarini muvofiqlashtiradi, shuningdek, mehnat organlari va muassasalarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tamoyillari va talablariga rioya qilinishini monitoring va nazorat qilish uslubiga muvofiq mehnat organlari va muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitish ishlarining tartib-taomillarini monitoring va nazorat qiladi.

8. "Komplayens nazorat" bo'limi mehnat organlari va muassasalari xodimlarini korrupsiyaga qarshi o'qitishga kadrlar boshqarmasi (bo'limi)ni hamda mehnat organlari va muassasalarining boshqa tarkibiy bo'linmalarini jalb qiladi.

9. "Komplayens nazorat" bo'limi mehnat organlari va muassasalari xodimlarini korrupsiyaga qarshi o'qitish rejalarini tayyorlash va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'quv materiallarini ishlab chiqishda Respublika mehnat organlari xodimlari malakasini oshirish kurslari bilan hamkorlik qiladi.

10. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi o'quv materiallarini tayyorlashga va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitish ishlarini xalqaro yoki tegishli tajribaga ega bo'lgan mahalliy tashkilotlar bilan shartnoma tuzish asosida uchinchi shaxslarni jalb qilishi mumkin.

### **5-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitish muddatlari va davriyligi**

11. Mehnat organlari va muassasalarining xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitish ishlari bir yilda kamida bir marta amalga oshiriladi.

12. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitish ishlari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida hamda mehnat organlari va muassasalarining ichki hujjatlarida nazarda tutilgan majburiy tarzda malaka oshirish davomida ta'lim olganligi hamda qo'shma konferensiyalar, yig'ilishlar, simpoziumlar o'tkazilishidan qat'iy nazar amalga oshiriladi.

13. Mehnat organlari va muassasalarining xodimlari quyidagi hollarda bir yilda bir martadan ortiq korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitishda ishtirok etadi:

agar xodim korrupsiyaviy xavfi yuqori bo'lgan lavozimni egallab turgan bo'lsa;  
lavozimga tayinlash va rotatsiya qilinishda, agar shaxsning yangi lavozimi korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo'lgan lavozimlar ro'yxatiga kirsam,  
mehnat organlari va muassasalarida korrupsiyaga oid huquqbuzarlik aniqlanganda yoki bajarilayotgan funktsiyaning korrupsiyaviy xavfi darajasi oshganda;

Bandlik va mehnat munosabatlari vaziri, uning o'rinbosarlari hamda mehnat organlari va muassasalari rahbarlarining topshirig'iga ko'ra.

14. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitish kunduzgi shaklda yoki masofaviy o'qitish elektron platformasidan foydalangan holda xodimlarning zaruriy tayyorgarligi va bilimlarini oshirish hamda nazorat qilish ishlari o'tkazilishi mumkin.

Barcha mehnat organlari va muassasalari xodimlari korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qishda ishtirok etishi uchun ushbu masofaviy o'qitish elektron platformasiga kirish imkoniyati mavjud bo'lishi kerak.

15.Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitish ishlari Bandlik va mehnat munosabatlari vaziri, uning o'rinbosarlari hamda mehnat organlari va muassasalari rahbarlari tomonidan belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

### **6-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitish turlari va shakllari**

16.Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitish quyidagicha amalga oshiriladi: barcha xodimlar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha umumiy o'qitish; korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi yuqoriroq bo'lgan lavozimlar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitish;

mehnat organlari va muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi elementlarini joriy etishga mas'ul bo'lgan xodimlar uchun korrupsiyaga qarshi maxsus o'qishlarni tashkil etish.

17.Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha umumiy o'qitish mehnat organlari va muassasalarining barcha xodimlari uchun majburiy bo'lib, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida Uzbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda mehnat organlari va muassasalarining ichki hujjatlari, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etilganda harakat qilish qoidalari va tartibi, shuningdek, ularni sodir etganlik uchun javobgarlik bo'yicha bilim va ko'nikmalarni olishga qaratiladi.

18.Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha umumiy o'qitish natijalariga ko'ra mehnat organlari va muassasalarining xodimlari o'rganilgan materiallarni o'zlashtirilganligi va tushunilganligini hamda olingan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llay olishlarini tekshirishga qaratilgan test topshirishlari lozim.

19.Mehnat organi va muassasasining xodimlari kamida 90 foizdan ko'p savollarga to'g'ri javob bersa, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha umumiy o'qitishni muvaffaqiyatli tamomlagan hisoblanadi.

20.Korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi yuqoriroq bo'lgan lavozimlar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitish korrupsiyaga qarshi umumiy o'qitishdan tashqari quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak:

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni identifikatsiya qilish va kamaytirish usullari va turlari; korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik maqsadida yuqori lavozimlarda korrupsiyaning namoyon bo'lish shakllari va turlarini.

21.Korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi yuqoriroq bo'lgan lavozimlar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitish korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha umumiy o'qitishdan qat'iy nazar amalga oshiriladi.

22.Korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi yuqoriroq bo'lgan lavozimlar ro'yxati "Komplayens nazorat" bo'limi tomonidan mehnat organlari va muassasalarida "Komplayens nazorat" tizimi xodimlari ko'magida O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vaziri tomonidan tasdiqlangan Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyotiga muvofiq shakllantiriladi.

23.Mehnat organlari va muassasalarida komplayens nazorat tizimi xodimlar uchun o'qitish korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida ekspertlarni jalb qilgan holda malakasini oshirish, shuningdek, ixtisoslashtirilgan vakolatli uchinchi shaxslar tomonidan tashkil etiladigan treninglarda qatnashish shaklida har ikki yilda kamida bir marta amalga oshiriladi.

24.Mazkur Uslubiy ko'rsatmalarning 26-bandida ko'rsatilgan malaka oshirish va treninglar kamida 40 (qirq) soat davomida o'tkaziladi.

25.Mehnat organlari va muassasalarida Komplayens nazorat tizimi xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi maxsus o'qitish korrupsiyaga qarshi kurashish sohasi qonunchiligidagi o'zgarishlar, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimlarni qurish va davlat organlarida korrupsiyani bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirilishini o'rganishni qamrab olishi lozim.

### **7-bob. Korrupsiyaga qarshi o'quv dasturi**

26.Mehnat organlari va muassasalarining xodimlariga korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha umumiy o'qitish amaliy ahamiyatga ega bo'lishi hamda yangi bilimlarni o'rgatishi yoki:

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilikni, mehnat organlari va muassasalarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki hujjatlarni, jumladan, o'rnatilgan taqiqlar, cheklovlar, majburiyatlar va ruxsatnomalar, xizmat xulq-atvoriga qo'yiladigan talablar, korrupsiyaviy tavsifdagi huquqbuzarliklar aniqlanganda mehnat organlari va muassasalari xodimlari harakatlarining ketma-ketligi bilan bog'liq bilimlar;

mehnat organlari va muassasalari faoliyatining turli yo'nalishlarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash qobiliyatini, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha belgilangan choralarni amaliyotda qo'llash mahorati bo'yicha olingan bilimlarni qo'llash ko'nikmalarini takrorlashni ta'minlashi zarur.

27.Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'quv materiallariga mazkur Uslubiy ko'rsatmalarning ilovasida ko'rsatilgan namunaviy mavzular kiritilishi mumkin.

### **8-bob. Qayta ko'rib chiqish va o'zgartirish kiritish tartibi**

28.Mazkur Uslubiy ko'rsatmalar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi hamda mehnat organlari va muassasalarining ichki hujjatlari o'zgarganda qayta ko'rib chiqilishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tizimi xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qitishni tashkil etish yuzasidan uslubiy ko‘rsatmalarga ilova

**O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tizimi xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘quv NAMUNAVIY DASTURI**

<b>Mavzu</b>	<b>Mavzu tarkibi</b>
Korrupsiyaning tabiati.	Korrupsiya tushunchasi, shakllari va sabablari; Korrupsiya ijtimoiy-huquqiy hodisa sifatida; jamiyatda korrupsiyaga munosabat.
Korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari.	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha xalqaro amaliyot; Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik; Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki hujjatlar.
Mehnat organlari va muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish usullari.	Korrupsiyaga qarshi kurashish elementlari, shuningdek, mehnat organlari va muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha muhim choralarning tahlili; Mehnat organlari va muassasalarida manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish, aniqlash va hal qilish; Mehnat organlari va muassasalari xodimlarining xulq-atvor qoidalari;



<p>Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xodimlar va tarkibiy bo'linmalarning majburiyatlari va vakolatlari;</p> <p>Ma'muriy tartib-taomillar va reglamentlardan foydalanish.</p> <p>Ma'muriy chegaralarni olib tashlash;</p> <p>Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik xavfi aniqlanganda amalga oshiriladigan harakatlar.</p>	
<p>Mehnat organlari va muassasalari tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlar va huquqbuzarliklarning asosiy turlari;</p> <p>Davlat mulki va budjet mablag'laridan foydalanish bo'yicha tanlovga oid tartib- taomillarning samaradorligi;</p> <p>Mehnat organlari va muassasalarining xaridlarni amalga oshirish faoliyati doirasida korrupsiyaviy xavf-xatarlar;</p> <p>Davlat xaridlarini amalga oshirishda korrupsiyaviy xavf-xatarlar;</p> <p>Jismoniy va yuridik shaxslarga ommaviy xizmatlarni ko'rsatishda korrupsiyaviy xavf-xatarlar;</p> <p>Litsenziyalash va nazorat qilish-ruxsat berishning boshqa faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlar;</p> <p>Qonunlar hamda mehnat organlari va muassasalarining ichki hujjatlarini tayyorlash, qabul qilish va amalga oshirish jarayonidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlar;</p> <p>Tekshiruvlar o'tkazish va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganishda korrupsiyaviy xavf-xatarlar;</p> <p>Mehnat organlari va muassasalarining faoliyatidagi boshqa xavf-xatarlar.</p>	<p>Korrupsiyaviy xavf-xatarlar va odatiy korrupsiyaviy huquqbuzarliklar.</p>

<p>Korrupsiyaga oid huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun javobgarlik.</p>	<p>Korrupsiyaga oid xuquqbuzarlikni sodir etganlik uchun intizomiy javobgarlik;  Korrupsiyaga oid huquqbuzarlikni sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlik;  Korrupsiyaga oid xuquqbuzarliklar haqidagi ishlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasida sud amaliyoti.</p>
<p>Korrupsiyaga qarshi fuqarolik jamiyati.</p>	<p>Korrupsiyaga qarshi kurashish vositasi sifatida jamoatchilik nazorati;  Huquqiy neglizmni bartaraf etish va fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish;  Korrupsiyaga qarshi kurashishda jamoat birlashmalari va ommaviy axborot vositalarining roli;  Korrupsiyaga qarshi ijtimoiy fikr va xulq-atvorni shakllantirish;  Ommaviy qoralash choralari;  Fuqarolik jamiyati institutlarining O'zbekiston Respublikasi mehnat organlari va muassasalari bilan o'zaro hamkorligi.</p>

O‘zbekiston Respublikasi Bandlik  
va mehnat munosabatlari vazirining  
2022 yil “19” yanvardagi 6-son  
buyrug‘iga 3-ilova

**O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tizimida  
korrupsiyaga qarshi tamoyillar va talablarga rioya qilinishini monitoring  
va nazorat qilish  
QOIDALARI**

**I. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Qoidalar mehnat organlari va muassasalari tizimida korrupsiyaga qarshi tamoyillar va talablarga rioya qilinishini monitoring va nazorat qilish tartibini belgilaydi.

2. Mazkur qoidalarda monitoring deganda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilinishi samaradorligini baholash hamda mehnat organlari va muassasalarining faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish maqsadida tekshirish, nazorat yoki tanqidiy o‘rganish ko‘rinishida amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi holatining tahlili tushuniladi.

3. Quyidagilar Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi tamoyillar va talablarga rioya qilinishini monitoring va nazorat qilishning asosiy maqsadi bo‘lib hisoblanadi:

a) mehnat organlari va muassasalari faoliyatining korrupsiyaga qarshi qabul qilingan talablarga muvofiqligini tekshirish;

b) mehnat organlari va muassasalarida korrupsiyaga qarshi amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning yetarliligi va korrupsiyaga qarshi tadbir etilgan tartib-taomillarning samaradorligini baholash;

v) korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining korrupsiyaga qarshi tizimini takomillashtirish.

4. Mehnat organlari va muassasalarida korrupsiyaga qarshi tamoyillar va talablarga rioya qilinishini monitoring va nazorat qilish bo‘yicha javobgar bo‘lib Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens nazorat” bo‘limi (keyingi o‘rinlarda – “Komplayens nazorat” bo‘limi) hisoblanadi.

**II. Monitoring va nazorat qilish yo‘nalishlari va ularni amalga oshirish bo‘yicha  
chora-tadbirlar**

5. Monitoring va nazorat mehnat organlari va muassasalarida qabul qilingan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki hujjatlar, yaxlit holda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini tashkil qiladigan (keyingi o‘rinlarda - korrupsiyaga qarshi kurashish

tizimi) funktsiya, tartib-taomillar, korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida mehnat organlari va muassasalarida joriy etilgan va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga nisbatan amalga oshiriladi.

6. Mehnat organlari va muassasalarining korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha monitoring va nazorat qilinadi:

a) korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining dolzarbligi va uning qonunchilik, shu bilan birga, xalqaro qonunchilik va standartlar talablariga muvofiqligini nazorat qilish, jumladan:

mehnat organlari va muassasalari faoliyatida qo'llanilishi mumkin bo'lgan qonun hujjatlari va yuqori turuvchi organlarning tavsiyalarini monitoring qilish;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha samarali tizimni yaratish va qo'llab-quvvatlash masalalari yuzasidan xalqaro va xorijiy tashkilotlarning tavsiyalarini monitoring qilish;

b) mehnat organlari va muassasalarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amaldagi tizimining samaradorligini monitoring qilish, jumladan:

mehnat organlari va muassasalarining, jumladan, ular xodimlarining korrupsiyaviy harakatlarga aralashganligi haqidagi ma'lumotlar hamda kontragentlarida shunga o'xshash ma'lumotlar mavjudligi yuzasidan ommaviy axborot vositalarini monitoring qilish;

mehnat organlari va muassasalari xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha asosiy tamoyillar va talablardan xabardorligini tekshirish;

mehnat organlari va muassasalari xodimlari tomonidan Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati va tartib-taomillarga rioya qilinishini tanlov asosida monitoring qilish.

### **III. Korrupsiyaga qarshi tamoyillar va talablarga rioya qilinishini monitoring va nazorat qilish tartibi**

7. O'zbekiston Respublikasi vakolatli organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha qonunchilik va tavsiyalariga rioya qilinishini monitoring qilish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

a) Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi har yili O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qonunchiligiga, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarorlariga hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish Milliy Kengash Ishchi organi tomonidan kiritilgan ko'rsatmalarni o'zgartirish va qo'shimchalarning monitoringini amalga oshiradi. Monitoring natijalariga ko'ra, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining ichki hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi zarurligi haqida qaror qabul qilinadi;

8. Xalqaro va xorijiy tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha tavsiyalarini monitoring qilish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

a) Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi har yarim yilda kamida bir marta korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha samarali tizimni yaratish va qo'llab-quvvatlash masalalari yuzasidan xorijiy tashkilotlarning (BMT, ShHT, YeHHT va boshqalar) tavsiyalarini monitoring qiladi. Qo'shimcha tarzda boshqa xalqaro standartlar va tavsiyalarini monitoring qiladi.

b) monitoring natijalaridan kelib chiqib va zarurat bo'lganda "Komplayens nazorat" bo'limi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining ichki xujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida tegishli takliflarni tayyorlaydi.

9. Ommaviy axborot vositalarini monitoring qilish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

a) "Komplayens nazorat" bo'limi mehnat organlari va muassasalarining Komplayens nazorat tizimi xodimlari hamda Bandlik va mehnat munosabatlar vazirligi matbuot xizmati faol ko'magida mehnat organlari va muassasalari, ularning bo'linmalari va (yoki) ularning xodimlarining biron-bir g'ayrihuquqiy, jumladan, korrupsiyaviy harakatlarga (keyingi o'rinlarda - relevant ma'lumot) jalb qilinganligi haqidagi ma'lumotlar mavjudligini aniqlash uchun ommaviy axborot vositalarini (milliy va xorijiy), shu jumladan, jurnallar, ro'znomalar, Internet tarmog'i va boshqa ommaviy axborot vositalarini doimiy asosda monitoring qiladi.

b) mehnat organlari va muassasalarining Komplayens nazorat tizimi xodimlari hamda matbuot xizmati tomonidan aniqlangan relevant ma'lumot zudlik bilan "Komplayens nazorat" bo'limiga yetkaziladi;

v) ommaviy axborot vositalarida mehnat organlari va muassasalari, ularning bo'linmalari va (yoki) ularning xodimlarining biron-bir g'ayrihuquqiy, jumladan, korrupsiyaviy harakatlarga jalb qilinganligi haqidagi ma'lumotlar aniqlanganda "Komplayens nazorat" bo'limi boshlig'i ushbu fakt haqida zudlik bilan Bandlik va mehnat munosabatlari vaziriga xabar beradi va xizmat tekshiruvini tayinlaydi va (yoki) aniqlangan ma'lumotlarni mehnat organlarining faoliyatiga salbiy ta'sirini minimallashtirish, jumladan, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tizimining nufuzini himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqadi;

10. Mehnat organlari va muassasalari xodimlarining korrupsiyaga qarshi asosiy tamoyillar va talablardan xabardorligini tekshirish Komplayens nazorat tizimi xodimlari tomonidan har yarim yilda bir marta mehnat organlari xodimlarining korrupsiyaga qarshi asosiy tamoyillar va talablardan xabardorligini tekshirish tizimi bo'yicha mazkur Qoidaning ilovasiga muvofiq birlamchi tadbirlarni tashkil etish yo'li bilan amalga oshiriladi. Mehnat organlari va muassasalari xodimlari tomonidan korrupsiyaga qarshi siyosat va tartib-taomillarga rioya qilinishini monitoring qilish belgilangan rejaga muvofiq tekshiruv shaklida Komplayens nazorat tizimi xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

11. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining buyrug'iga ko'ra mehnat organlari va muassasalarida ularning faoliyati bo'yicha rejadan tashqari komplayens-tekshiruvlar o'tkazilishi mumkin.

12. Komplayens-tekshiruvlar doirasida xodimlar tomonidan Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha siyosati va tartib-taomillarga rioya qilinishini nazorat qilish, sodir etish ehtimoli yuqori bo'lgan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlash, korrupsiyaviy xavf- xatarlarni har yili baholanishi va avvalgi monitoring doirasida ishlab chiqilgan chora-tadbirlar ijrosini nazorat qilish amalga oshiriladi.

13. Komplayens-tekshiruvlarni yilda bir marotaba rejalashtirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

har yili 25-yanvargacha "Komplayens nazorat" bo'limi mehnat organlari va muassasalarida komplayens-tekshiruvlarni o'tkazish rejasini ishlab chiqadi;

reja bir kalendar yilga tuziladi va birinchi navbatda, mehnat organlari va muassasalarining korrupsiyaviy xavf-xatari yuqoriroq bo'lgan funksiyalarini o'z ichiga oladi. Komplayens-tekshiruvlarni o'tkazish rejasida:

a) tekshiruv sohasi (yo'nalishi) - muayyan mehnati organi va muassasalarining tahlil qilinadigan ichki jarayonlari va (yoki) funksiyalari/yo'nalishlari;

b) tekshiruv predmeti - ijrosi tekshirilishi lozim bo'lgan mehnat organi va muassasalarining ichki hujjatlari;

v) tekshiruv davri;

g) tekshiruv turi (to'liq yoki tanlov asosida);

d) tekshiruv usuli (masalan, to'g'ridan-to'g'ri funksiyani bajarishga mas'ul bo'lgan xodim bilan intervyu, hujjatlarni, korrupsiyaviy xavf- xatarlarni minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ijrosini tekshirish va h.k.) ko'rsatiladi.

Reja 1-fevralgacha Bandlik va mehnat munosabatlari vaziri tomonidan ko'rib chiqilishi va tasdiqlanishi lozim.

14. Komplayens-tekshiruvlar Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining tekshiruvlarni o'tkazish tartibi to'g'risidagi buyrug'i asosida o'tkaziladi.

15. Komplayens-tekshiruvlar alohida holatlarni hisobga olgan holda quyidagi tartibda o'tkaziladi:

a) komplayens-tekshiruv mehnat organi va muassasalarining jarayonlari/hujjatlarini tahlil qilish, shuningdek, muayyan chora-tadbirlar/funksiyalarni bajarilganligini tasdiqlash uchun zarur ma'lumot/hujjatlarni so'rashdan boshlanadi (masalan, xarid bo'yicha hujjatlarni, arz qiluvchi bilan elektron yozishmalarni, kirish va chiqish hujjatlarini, buxgalteriya birlamchi hujjatlarni, xodimlarga oid ma'lumotlar, hisobga olish tizimidan yuklanmalar, fotomateriallar, tasdiqlovchi hujjatlar);

b) so'rov yuborilayotgan mehnat organi va muassasalari tarkibiy bo'linmalari rahbarlari so'ralayotgan barcha hujjatlarni o'z vaqtida va to'liq taqdim etilishiga javobgar hisoblanadi;

v) so'ralayotgan hujjatlar olinganidan keyin "Komplayens nazorat" bo'limi jarayon va funksiyalarni ularning bajarilishi ichki hujjatlarga, jumladan, korrupsiyaga qarshi

tamoyillar, talablar va tartib-taomillarga muvofiqligini tahlil qiladi. Shuningdek, "Komplayens nazorat" bo'limi mehnat organlari va muassasalari xodimlari harakatlarining qonuniyligini va ularga mehnat organlari va muassasalarining korrupsiyaga qarshi tamoyillar va talablar jihatidan yo'l qo'yilishini tekshiradi;

g) "Komplayens nazorat" bo'limining komplayens-tekshiruvni o'tkazayotgan xodimlari komplayens-tekshiruvni lozim darajada hujjatlar bilan rasmiylashtirilishini va kuzatilishini, jumladan, quyidagilardan iborat bo'lgan ish hujjatlarini rasmiylashtirish yo'li bilan ta'minlaydi:

tekshiruv va tekshirilgan tartib-taomillar doirasida bajarilgan harakatlar haqidagi ma'lumot;

aniqlangan qoidabuzarliklar/kuzatuvlar haqidagi ma'lumot;

komplayens-tekshiruvning xulosalari/natijalarini tasdiqlovchi fayllar/hujjatlar (so'ralgan hujjatlarning nusxalari/skaner qilingan versiyalari);

16. Komplayens-tekshiruv "Komplayens nazorat" bo'limining topshirig'i va Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining buyrug'i bilan uchinchi shaxslar tomonidan komplayens-tekshiruvni o'tkazish tajribasiga ega bo'lgan xalqaro yoki mahalliy tashkilotlar bilan shartnoma tuzish orqali o'tkazilishi mumkin.

17. Komplayens-tekshiruv natijalariga ko'ra, quyidagi asosiy qismlardan iborat bo'lgan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilinishi haqida ma'lumotnoma-hisobot tuziladi:

**kirish qismi:** o'tkazilgan komplayens-tekshiruv haqida ma'lumot (jarayonlar/funksiyalar, tekshirilayotgan davr, ishtirokchilar, muddatlar, nazorat tartib-taomillari, o'rganilgan hujjatlar va h.k.) ko'rsatiladi;

**bayon qismi:** tekshiruv davomida aniqlangan holatlar, tekshiruv tadbirlarini o'tkazish natijalari va aniqlangan qoidabuzarliklar haqidagi ma'lumot aks ettiriladi;

**qaror qismi:** mehnat organlaridagi korrupsiyaga qarshi mavjud nazoratlar/tartib-taomillarning samaradorligi haqidagi hulosalar va (zaruratga ko'ra) ichki jarayonlarni amalga oshirishda korrupsiyaga qarshi choralarni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar shakllantiriladi.

#### IV. Yakunlovchi qoidalar

18. Monitoring va nazorat bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasiga ko'ra "Komplayens nazorat" bo'limi Bandlik va mehnat munosabatlari vaziriga hisobot beradi.

19. "Komplayens nazorat" bo'limi tomonidan monitoring va nazorat bo'yicha chora-tadbirlar natijasiga ko'ra ishlab chiqilgan tavsiyalar keyingi yilga mo'ljallangan Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish dasturiga kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari  
vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi tamoyillar  
va talablarga rioya qilinishini monitoring va nazorat qilish  
qoidalariga ilova

**Mehnat organlari va muassasalari xodimlarining korrupsiyaga qarshi tamoyillar va talablardan xabardorligini tekshirish  
TIZIMI**

	<b>Tekshiruv yo'nalishi</b>	<b>Tekshiruv tadbirlari</b>
1.	Mehnat organlari va muassasalari xodimlariga o'qitish va axloq qoidalariga, korrupsiyaga qarshi tamoyillar va talablarga rioya qilish masalalari bo'yicha treninglar (kunduzgi yoki sirtqi) o'tkazilishining monitoringi.	Treninglar muntazamligi, ularning mazmuni va qatnashuvchi shaxslar qismi bo'yicha ichki talablarga rioya qilinishini nazorat qilish.
2.	Korrupsiyaga qarshi kurashish prinsiplari va tartib-taomillar talablarini bilishini tekshirish.	Mehnat organlari xodimlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish treninglari doirasida o'tkaziladigan test yoki boshqa nazorat tadbirlaridan o'tishlari natijalarining tahlili; Xodimlarni korrupsiyaga qarshi siyosat bilan imzo qo'ydirilgan holda majburiy tarzda tanishtirilganligini tekshirish; Xodimlarni korrupsiyaga qarshi siyosat va tartib-taomillarning bilishini tanlov asosida tekshirish: 1) tekshiruvda qatnashish uchun mehnat organlari va muassasalari xodimlarini tanlov asosida aniqlash (so'rovda qatnashadigan xodimlarning eng kam soni – mehnat organlarida turli tarkibiy bo'limlardan turli lavozimlarni egallab turgan kishilar soni 10 nafar);



		<p>2) ichki hujjatlarda ko'rsatilgan korrupsiyaga qarshi talablar va normalar bo'yicha (muayyan vaziyatda vazifa - keyslarni hal qilish bilan) savollar ro'yxatini tuzish (savollarning eng kam soni 10 ta, ular test formatida, ochiq savollar shaklida yoki boshqacha usulda tuzilishi mumkin);</p> <p>3) javoblar/qarorlarni taqdim qilishlari uchun tanlab olingan xodimlarga nazorat savollarini yuborish;</p> <p>4) natijalarni tahlil qilish va xodimlar bilan korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarni tushinishda qiyinchiliklarni muhokama qilish.</p>
--	--	--